

Futbol bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi

O'zbekiston Respublikasida sportga bo'lgan qiziqish shunchalik yuqoriki, mamlakatda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lganlar insonlar shu sport bilan shug'ullanishadi. Xususan, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida ham shunday, ya'ni jamoaning barcha a'zolari rahbariyat, professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar o'zlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida sportning futbol turi bilan shug'ullanib turadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'tarilgan 5 ta tashabbus ijrosi yuzasidan joriy yilning 14 oktyabr kuni institutning sport maydonchasida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti 1-bosqich talabalari o'ttasida futbol bo'yicha "Dekan kubogi" tashkillashtirildi. Bundan maqsad talaba-yoshlarni yanada jipslashtirish va ularning vaqtini mazmunli o'tkazishdan iborat edi.



Tadbirni fakultet dekani t.f.n. dotsent Shavazov Q.A. ohib berdi. Unda 8 ta jamoa qatnashdi. Barcha talabalar nigohida sportning bu turiga qiziqishlari ularning xursandchiligidagi namoyon bo'ldi. Musobaqa natijalariga ko'ra, 1-o'rinni 103-guruh, 2-o'rinni yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rribosari boshchiligidagi yig'ilgan terma komanda, 3-o'rinni 101- va 104-guruhi egallashdi. Tadbirni tashkillashtirishda fakultet dekani rahbarligidagi jamoasi va "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasini a'zolariga chuqur minnatdorchiligidanizni izhor etamiz.

**"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti yoshlari bilan ishlash bo'yicha dekan
o'rribosari H.Boymatov axboroti**

Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov